JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 13 - may 113-3-53-Q/24 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, sun’iy notekisliklar o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 04-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” to‘g‘risidagi PQ-190-sonli qarorining ijrosini ta’minlash bo‘yicha yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tumani Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 29-martdagi 42/627-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin va maqullansin.

2. Forish tumani “M.Orolov” MFY hududidagi ichki yo‘llarga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisligi va yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat etilsin.

3. Tuman “Obodonlashtirish boshqarmasi” rahbari (X.Jo‘raqulov) “M.Orolov” MFY hududdidagi ichki yo‘llarga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisligi va yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (T.Muqimov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda

tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov va tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Q.Nazarov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.S.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2024-yil 13-maydagi
113-3-53-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Forish tumani “M.Orolov” MFY hududidagi ichki yo‘lga sun’iy notekislik va yo‘l belgisi o‘rnatish dislokatsiyasi

№	MFY nomi	Obyekt nomi	Joylashtirish Joylari	Yo‘l belgisi nomi
1	M.Orolov MFY	Qoraobdol-Garasha" avtomobil yo‘lining kolej va kasalxona joylashgan qismi	PK 00+94 PK 00+117	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi